

## **7- mavzu: Aplikatsiya xaqida umumiy tushuncha.**

### **REJA:**

1. Aplikatsiyada qirqishni har xil usullarini bajarish.
2. Mazmunli va bezakli aplikatsiyalar.

#### **1. Aplikatsiyada qirqishni har xil usullarini bajarish.**

*Aplikatsiya* xalq amaliy san'atida keng o'rin tutadi. Aplikatsiya so'zining ma'nosi, qirqib olib yopishtirish demakdir. Bu usulda qo'g'oz, mato, charm, somon, qurutilgan barglar, urug'lar, tashlandiq buyumlar, simlar, iplardan foydalanib har xil ishlarni bajarish mumkin.

*Aplikatsiya*- badiiy asarlar yaratishning eng sodd va oson usulidir, bunda tasvirning asosi saqlanadi. Bu aplikatsiyadan faqat bezash maqsadlaridagina ko'rgazmali qurollar, turli o'yinlar uchun qo'llanmalar, o'yinchoqlar, bayroqlar, sovg'alar, devoriy gazetalar, stendlar, ko'rgazmalar va kostyumlarni tayyorlashgina emas, balki kartina, panno, naqshlar va shu kabilarni yaratishda ham keng foydalaniladi.

Aplikatsiya bundan 2500 yil muqaddam ko'chmanchi xalqlarda paydo bo'lgan. Aplikatsiya bilan kiyim bosh, turar joylar bezatilgan. Aplikatsiya turli xalqlarda turli materiallardan tayyorlangan. Masalan: yakutiyaliklar aplikatsiya ishida po'stloqdan foydalanishgan. Xanti-mansi, evenk va boshqa shimol xalqlari aplikatsiyada teri, sukno, moynadan foydalanganlar.

Qozoq, qalmoq, osetin, buryat va boshqa xalqlar aplikatsiyadan milliy kiyim, uy-ro'zg'or predmetlarni bezashda foydalanishgan. Gazlamadan aplikatsiya materiali sifatida ancha keyinroq foydalanila boshlandi. Gazlama parchalarini fon xizmatini o'tovchi materialga tikib naqsh yaratilgan. Gazlamadan yasalgan aplikatsiya bilan kiyim-bosh, uy-ro'zg'or predmetlari bezatilgan.

Hozirgi kunda applikatsiya har bir xalq san'atida juda keng tarqalgandir. Applikasiyaning eng yosh turi flaristikadir. 1960-yilda dunyoda birinchi flaris rassomlar jamiyati tashkil etganlar.


Applikatsiya bilan shug'ullanishda bolalar dunyoqarashini uyg'un rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Applikatsiya bolalar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, fantaziyani boyitadi, kuzatuvchanlik, diqqat va tasavvurni faollashtiradi, irodani tarbiyalaydi, qo'l mehnati, shaklni his qilish, chamalash va rangni sezish qobiliyatini o'stiradi.

Applikatsiya qilish usuli bilan guruh xonalari, mexmomxona, oshxonalar, bolalar ayvonchalari bezaladi. Bolalar bog'chasida applikatsiya yasashda :

- kichik guruhdan tayyor qirqilgan shakl beriladi.
- O'rta guruhdan boshlab bolalarga qaychi beriladi va ishlash mustaqil olib boriladi. Applikasiyada qog'oz asosiy rol ni bajaradi. Applikatsiya ishini bajarishda xar xil yelim ishlatilavermaydi. Yelimni uy sharoitida arzon va oson usulda tayyorlash xam mumkin. Bu yelim kleyster deb ataladi. U kraxmaldan quyidagicha tayyorlanadi: bir choy qoshiq kraxmal, 5 choy qoshiq sovuq suvda aralashtirib olinadi, so'ng yarim stakan suv solib past olovda qaynaguncha kovlab turiladi, qaynashga yaqin qolganda olovdan olinadi va sovitiladi, so'ngra ishlatiladi. Applikatsiya ishini bajarish uchun tayyorgarlik ko'rish lozim. Bu quyidagicha bajariladi: syujet tanlash, xomaki chizma; rangli qog'ozlarni tayyorlash; fon tanlash. Applikatsiya ishining ish qurollari: qaychi, yelim, kalka, pichoqcha, chizg'ich, qoraqalam, moyqalam, kopirovka, flamasterlardan iborat. Applikatsiya ishlari oddiydan tortib mazmunli, kantili, dekorativ, qo'lda yirtish orqali mozaika usulida tabiat materiallaridan ( barg, urug, danak, piyoz po'sti, shisha siniqlari tashlandiq similar, va iplar) ham bajariladi. Applikatsiya tayyorlashda odiiy va murakkab qirqish usulidan foydalaniladi. Oddiy qirqish usulibilan yaxlit shakl hosil qilinadi va qirqilgan shakl quyidagicha teng va tekis qirqiladi. Qog'ozni 5-6 qavat qilib buklab turib qirqishga **murakkab qirqish** usuli deyiladi.


Bu usulda qirqishga 1-ta shakl 5-6 marta ko'payib chiqiladi. Quyida bir necha murakkab qirqish usullarini keltiramiz:

**1-rasm. Quyidagi rasmlarda bir necha usulda qirqish usuli ko'rsatilgan:**



Applikatsiya yaratishda asosiy e'tibor uning umumiy kompozitsiyasiga qaratilishi kerak. Yaxshi o'ylangan kompozitsiya, ya'ni tasvirlash lozim bo'lgan narsalarni joylashtirish – applikatsiya muvoffaqiyatining garovidir.

1. Eng oddiy applikatsiya bu *geometrik shakllardan* applikatsiya qilinadigan naqshli applikatsiyadir. Avval naqshning xomaki nusxasi tuziladi, so'ngra kerakli detallar (geometrik shakllar) o'lchami va miqdori hisoblanadi. Detallar tayyorlanib ma'lum tartibda joylashtiriladi va yopishtirishni qaysi detaldan boshlab kerakligi aniqlanadi.





Ushbu rasmda xar xil geometrik shakllarni qirqilishi, gulli kompozitsiyalar uchun tirajli(kop nusxada) figuralarni qo'llash, shuningdek yarim maxsulot turlarini buklash uslublari ko'rsatilgan. Shunday qilib ikkita to'g'ri to'rtburchak yoki sakkizta xam qirqish mumkin. Birinchi xolatda qog'ozni ko'z chamasida taxminan bo'lib buklab olamiz, keyin to'g'ri ko'ngdalangiga qiyiladi( 1.1 rasm). Ikkinchi misolda sakkizta to'rtburchak tasma qog'ozini teng uch barobar buklanadi va buklangan joydan etti marotaba qirqiladi.(1,2 rasmlar). Bunday buklov orqali bir xil shakldagi figuralar qirqish uchun juda qulay bo'ladi. Bu shakllar- kopqavatli yuchalar va avtobuslar oynasi, girlyandalar uchun bayroqchalar bo'lishi mumkin.

Kvadratni tasma qog'ozdan qiyish mumkin, uzunligi va kengligini xisobga olib. Masalan, ikkita figura olish uchun tasmani 4x8 yoki 3x6 o'lchamida olinadi. Agarda ko'proq kvadrat olish kerak bo'lsa qog'oz tasmani uzunligini kopaytiriladi. Uchburchakni xar xil qirqish mumkin. Eng soda usuli bu kvadratni qiyalab qirqish, ya'ni bir burchakdan ikkinchisiga qarab( 1.5). Bunda chap qo'lda ushlab ikki yoki uch marta qiyiladi.(1.6 va 1.7 rasmlar). Rombni ikki xil usulda qirqish mumkin: to'g'ri burchakni ikkiga buklab uzunasiga va ko'ngdalangiga xar bir burchakni qirqamiz.(1.8 rasmlar). Yoki tasmani kozlab chamalab uzunasiga qirqadi. Kopburchakli figurani esa, kvadratni ikkiga tik bo'lib, keyin esa buklovning markaziy nuqtadan burchak qirqiladi.(1.10 rasm). Huddi shundayolti burchaklar xam qirqiladi. (1.11).

Yumaloq shakllarni kvadratdan qirqiladi, qog'oz tasmadan, kvadratni to'rtga buklab qirqiladi.(1.12-14)





2. **Qog'ozni Ikkiga buklash yoli bilan qirqish.** Simmetrik shakldagi predmetlarni qirqish usuli: barglar, gullar, idishlar( kuvshin, vaza va x.k.) Bu shaklda qog'ozni qirqishda qiyadigi shaklni yarmini tasavvur etish lozim.




3. **Qog'ozni bir necha marotaba buklab qirqish.** Murakkab simmetrik shakllarni qirqish usuli: barcha qismlar markaz atrofida joylashgan(salfetka, qorparchasi, romashka, bo'takoz).

Kvadrat qog'ozni bir necha marotaba diagonal bo'yicha buklanadi. Buklangan joyini ikki barobar qirqish lozim. Ya'ni bir-biriga to'g'ri kelishi uchun(gullar uchun).


Yulduzcha uchun maxsus buklov mavjud, uni rasmdan ko'rish mumkin.




**4. Qog'ozni garmoshka shaklida qirqish.** Bu usul bir xil shakldaggi predmetlar va girlyandalarni qirqishda foydalanadi. Qog'ozni eniga teng bir-biriga tushishini xisobga olib buklab qirqiladi. Girlyanda qirqishda bir-biri bilan bog'lagan xolda qirqilishi lozim. Shuningdek bir-birini bog'lovchi qismlariga qaychi tegishi kerak emas. Buklangan tomonda bir yoki ikki tomondan predmetning rasmini qirqiladi.



**5. Qog'ozni qismlarga bo'lib qirqish.** Biror predmetni murakkab konstruktsiya yoki xar xil rangdagi qismlarni olish uchun aloxida qismga bo'lib qirqiladi. Qirqishda xar bir qismnibg o'lchovini inobatga olish lozim.



Qo'g'ozni siluetli qirqish. Ushbu shaklni ko'z chamasida , konturlarini chizimagan holda qirqiladi. Qirqish ikki etapda bo'ladi. Avvaliga qog'ozdan katta shakl qirqiladi, keyin esa chetlaridan mayda detallari qirqiladi.(masalan baliqning dumi, tipratikanning ignasini va boshqalarini)



## 2. Mazmunli va bezakli applikatsiyalar.

Bolalar uchun applikatsiya – bu qirqish, yopishtirish yoli bilan tasvir olish. Applikatsiya amaliy san’atning bir turi hisoblanadi. Applikatsiya yordamida xar xil shakldagi faktura va materiallardan panno, otkritkalar, aksessuarlar modniy ko’ylaklar uchun, rasmlar yaratiladi. Barcha buyumlarni yaratishda uni bajarish texnikasi asos bo’ladi. Barcha xolatlarda material yopishtirib asosiga tikiladi.

Bolalar uchun applikatsiya nimasi bilan foydali. Applikatsiya yaratishda koproq vaqt talab etadi. Shuning uchun ota-onalar applikatsiya yasashni bilishi kerak, bolalar applikatsiyani yaratish jarayonida- motorikasi, badiiy taasurotlari rivojlanadi, estetik didi shakllanadi, ranglarni ajrata olishni boshlaydi, konstruktiv fikrlashlaydi, dunyoqarashi, birinchi ijodiy qobiliyati rivojlanadi.

### Applikatsiya turlari.

Applikatsiyaning xar xil turlari mavjud. Tematika bo’yicha uni uch guruhga bo’lish mumkin:

- Predmetli applikatsiya. Uncha murakkab bo’lmagan applikatsiya bo’lib uni qog’oz, mato va boshqa materiallardan shakl qirqib asosiga yopishtiriladi, tasvir barg, xayvon, uy, qushlar va x.k. bo’lishi mumkin.
- Suyjetli applikatsiya – bu biror xarakatni yoki voqeani tasvirleydigan tasvir bo’lib bir necha detallarga bo’linib yopishtiriladi.

- Dekorativ applikasiya–bu bezakli applikasiya, unda ramkalar, albomlar, uy-ro'zg'or buyumlari bezatiladi. Koproq naqshlar va ornamentdan iborat bo'ladi.



Bundan tashqari applikasiya turlari quyidagicha bo'linadi:

- Rangi bilan( rangli, oq-qora, bir xil rangda);
- Xajmi bilan(yassi, bortib chiqqan);
- Materiali bilan ( qog'oz, mato, tabiiy buyumlar, tosh va x.k.)

Tushunishga oson bo'lishi uchun bezakli applikasiyalarni turlarini misol qilib keltiramiz.

### **Yassi(tekkis) applikasiya –oddiy applikasiya turi.**



Rangli qog'ozdan ob'ekt ciluetini chizib olamiz va sekin asta konturidan qirqib chiqib fon asosiga yopishtirib olamiz. Eng asosiysi bu jarayonda xarakatlar voqeilikka to'g'ri kelishi lozim.

## **Xajmli applikatsiya.**

Bu applikatsiyani yaratishda oldin qog'ozga sxematik rasm tushiriladi, keyin katta xajmdagi elementlarni tayyorlab olinadi. Bu – qog'ozdan katta doiralar, garmoshka, prujinka, va boshqa elementlar bo'lishi mumkin. Katta xajmdagi detallar oldin rasimga terib olinadi, so'ng yopishtiriladi. Ulardan biri **plastik applikatsiyadir.**

Yassi (tekkis) applikatsiyaga nisbatan plastik applikatsiya fantaziya va mexnat talab etadi. Rangli qog'ozni olib g'ijimlab plastik xolatga keltirish lozim. G'ijim qog'ozni sekin asta yozib predmet shaklini berish lozim. Kerakli shaklga kelganda asosga yopishtirish kerak bo'ladi. Yopishtirishda buyumni kerak bo'lsa yozish yoki buklash kerak bo'ladi. Bola bilan ishlashda oddiy buymlar yasashni talab qilish lozim.



## **Bolalar uchun barglardan applikatsiya.**

Bu applikatsiya ishni yaratishda barglar to'plash lozim. Chiroyli o'simliklarning barglarini yig'ib olib, barglarni quritishda kitob orasida quritish mumkin, yanada tezroq quritish uchun dazmol xam ishlatish mumkin. Ya'ni barglarni qog'oz yoki gazetadan foydalanib dazmol qilish lozim. Barglardan rasmni yaratish uchun

oldindan yaxshi o'ylab olish lozim. So'ng qog'ozga tartib bilan joylashtirib olib, yopishtirish kerak.



### **Matodan tayyorlanadiga bezakli applikatsiya.**

Bu applikasiyani yaratishda matodan foydalaniladi. Mato paxtadan tayyorlangan bo'lishi kerak, unga ishlov berishda matoni kraxmalga bo'ktirish lozim. Matoni kraxmallashtirishda kartoshka kraxmali va suyuq kleysterdan foydalanish mumkin. Agarda mato sintetik bo'lsa uni jelatin suyuqligiga bo'ktirish lozim. Tayyor bo'lgan mato maxsulotini kerakli buym detallari qirqib olinib yopishtiriladi.



## **Kvilling .**

Kvilling applikasiya mexnat talab qiladigan va qiziqarli turi bo'lib, uni yaratishda oddiy tekis qog'oz va qo'g'oz tasmalardan foydalaniladi. Qo'g'ozni olib unga rasm solinadi. Qo'g'ozga tushirilgan tasvirni to'ldirishda uzun tasmali qo'g'ozni o'rab yopishtirib boriladi. Buni qunt va sabr bilan bajarish kerak bo'ladi.



## **Somondan yasalgan applikasiyalar.**

Somonchali applikasiya somon va kleysterdan foydalanib yasaladi. Somonchani quritib, tozalab yuqori qismidan ajratib olinadi. So'ng 20-30 daqiqaga qaynagan suvga bo'ktirib olinadi. So'ng somonchalarni ikkiga bo'lib yorib olamiz, keyin



dazmol bosilib, tekkis silliq xolatga keltiriladi. So'ng yonma –yon, tekis yopishtirib boriladi. Tayyor bo'lgan buyumni kerakli tasvirni qirqib olinadi va qog'oz asosiga yopishtiriladi. Bolalar bog'chasida tarbiyachilar bolalar bilan somondan ko'plab oddiy badiiy asarlarni yaratishi mumkin. Ijodkorlik qilish uchun par, tugma, ip, munchoq, toshla va boshqa buyumlardan xam foydalanish mumkin.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Applikatsiya so'zining ma'nosi?
2. Bolalarga o'rgatishning ahamiyati?
3. Applikasiyaning turlari?
4. Applikatsiya yasash qoidalari, geometrik applikasiyani yasash?
5. Applikatsiya yasash uchun qanday buymlardan foydalaniladi?
6. Bezakli applikasiyalarni yasashda kerakli buyumlar va turlari?

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Yusupova P. Maktabgasha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvshi. 1993.
4. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgasha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006.
5. Sodiqova Sh.A. Maktabgasha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni 2013

